

## SARIMSOQPIYOZ YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI

Sh.Xasanova

Navoiy viloyati Pedagogika markazi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8361648>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sarimsoqpiyoz yetishtirish texnologiyasi va uning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Piyozdoshlar oilasi*, unshudring, mahalliy pushti, Mayskiy.

**Аннотация.** В данной статье описана технология выращивания чеснока и ее значение.

**Ключевые слова:** Семейства луковых, роса, местный, розовый, Майский.

**Abstract.** This article describes the technology of growing garlic and its importance.

**Keywords:** Onion family, dew, local pink, Maisky.

Mamlakatimizda meva – sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash hamda eksport qilish ishlari jadal rivojlanmoqda. Sabzavotlar yetishtirishda yerlardan unumli foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Sarimsoqpiyoz muhim sabzavot ekini hisoblanadi. Sarimsoq (*Allium sativum*) - piyozdoshlar oilasi piyozi turkumiga mansub ikki va ko‘p yillik sabzavot o‘simligi. Vatani - O‘rta Osiyo. Sarimsoq jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda yetishtiriladi. Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Misr, Shimoliy Afrika, O‘rta Osiyo, Markaziy va Janubiy Yevropa, AQSH, Meksika va Turkiyada sarimsoq yetishtirish boshqa davlatlarga nisbatan keng tarqalgan.

Madaniy sarimsoqning 2 turi mavjud bo‘lib, biri gulpoya chiqarmaydi, ikkinchisi gullab, urug‘ hosil qiladi. Sarimsoqning O‘zbekistonda tarqalgan gulpoya chiqaruvchi navlari serhosil, qishga chidamli. Bargi lentasimon, ildizi patak. Gullari mayda, ikki jinsli, qo‘ng‘iroqsimon, oq yoki binafsha rang. Piyozi murakkab, pardasimon umumiyl qobiq ichida mayda piyozchalari bo‘ladi. Yurtimiz hududida barcha viloyatlarda sarimsoq piyozning 2 ta navi Janubiy “mahalliy pushti” kechpishar va “MayskiyVIR” ertapishar navlari ekiladi.

Sarimsoq o‘g‘itga ancha talabchan hisoblanadi. Shuning uchun sarimsoq piyoz yetishtirish oldidan ekin maydoni mahalliy va mineral o‘g‘itlar bilan qayta ishlanadi. Ularga organik va mineral o‘g‘itlar quyidagicha tavsiya etiladi. Qurigan go‘ng gektariga 20-30 t, azot 200 kg, fosfor 140-160 kg, kaliy 60-75kg. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning 75% ekishdan oldin beriladi. Qolgan qismini esa o‘siv davri davomida bo‘lib-bo‘lib berib boriladi. Sarimsoq turli iqlim sharoitiga tez moslashuvchan, sovuqqa chidamli, qurg‘oqchilik yerlarda ham o‘sadigan sabzavotlarda hisoblanadi. Sarimsoqpiyoz boshqa sabzavotlarga nisbatan tez o‘sadi. Sarimsoqning e‘tiborli xususiyatlaridan biri shuki, u boshqa sabzavotlarga qaraganda sovuqqa ancha chidamli - 7- 8° sovuqqa chidaydi, 10-15° issiqda yaxshi o‘sib rivojlanadi, 20-25° da pishib, yetiladi. Sarimsoq ikki marta — bahorda va, asosan, kuzda ekiladi. Sarimsoq o‘simligi mexanik tarkibi yengil, unumdar yerlarda, shuningdek, soz tuproqli va yaxshi o‘g‘itlangan qumloq tuproqli yerlarda, tarkibida 5% gumus bo‘lgan tuproqlarda yaxshi o‘sadi 100 m<sup>2</sup> yerga shunday piyozchalardan 10–15 kg sarf qilinadi. Sug‘oriladigan unumdar yerlarga qator oralarini 45 sm, o‘simlik oralig‘ini 6-8 sm qilib, 4-6 sm chuqurlikka ko‘miladi. Ekib bo‘lingach, tuproq, somonli go‘ng, chirindi solinadi. O‘suv davrida 5-6 marta sug‘oriladi, oziqlantiriladi, parvarishi piyozga o‘xshash. Bahorda o‘sib chiqqan gulpoya (karnay) lari yulib tashlanadi. O‘zbekistonda ertapishar (Mayskiy) navi may

oyining oxirlarida, kechpishar (Binafsharang, Janubiy binafsharang, Andijon) navlari iyul boshlarida yetiladi. Hosildorligi 50-150 s/ga.

Sarimsoqni lertasimon ikki va uch qatorlab, piyozidan ekib ko‘paytiriladi. Lentaning va qator oralarining kengligi 70 sm bo‘lishi kerak, bu qator orlarini asosiy izi 1,4 kg bo‘lgan mexanizmlar bilan ishlov berishga imkon yaratadi. Har bir piyozda 7-8 tadan 20 tagacha sarimsoqchalar bo‘lib, ular ajratiladi va har bir bo‘lakcha alohida-alohida qilib ekiladi. Bunda o‘simliklar orasi 6-8 sm dan qilib, 5-6 sm chuqurlikda ko‘miladi. Ekib bo‘lingach chirigan go‘ng yoki shunga o‘xhash chirindilardan sepish mumkin.

Sarimsoq o‘suv davrida 5-7 marta sug‘oriladi. Begona o‘tlardan tozalanib, o‘g‘itlanadi. Kasalliklarga qarshi chora-tadbirlar ko‘riladi. Sarimsoq avgust oy oxiri va sentyabr oyida ekiladi. Bundan kech ekilsa ildiz otib ulgurmaydi. Butun qis davomida ildizlari rivojlanib boradi. Sarimsoq may oyi oxiri va iyun oyi boshlarida yig‘ib olinadi. O‘zbekiston sharoitida sarimsoq zararkunandalaridan piyoz pashshasi, kasalliklardan soxta unshudring kasalliklari bilan zararlanadi. Bundan tashqari bahor boshida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lishi zang kasalligiga chalinishi mumkin. Buning oldini olish uchun o‘simlik unib chiqo boshlaganda yoppasiga 0,2 % li texnik xlorofos yoki 0,2 % li BI-58 eritmasi purkaladi. Soxta unshudring kasalligini oldini olish uchun 1 % li bordo suykligi purkaladi. Sarimsoq yig‘ib olinguncha 2 oyda bir marta dori purkab turiladi. Sarimsoqni pishganini gulpoyasining sarg‘ayishi, bo‘g‘imlarining yumshoq bo‘lishidan bilish mumkin. Tarkibida qand, S, V vitaminlari, efir moyi, fitonsidlar bor. Uni oziq-ovqat sifatida iste’mol qilganda bakteritsid, antiparazitar va zamburug‘larga qarshi ta’sir kuzatiladi. O’tkazilgan tadqiqot natijalari muntazam ravishda sarimsoq iste’mol qiladigan shaxslar guruhi sarimsoqni umuman iste’mol qilmaydiganlarga qaraganda shamollashdan uch baravar kam aziyat chekishlari ma’lum bo‘lgan.

Sarimsoq yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sabzavotni muntazam iste’mol qilish qon hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi, shuningdek qon bosimi va xolesterin darajasini pasaytiradi. Tromboz xavfi va qonning yopishqoqligini kamaytiradi. Sarimsoqni saraton kasalliklari ehtimolini kamaytirishi aniqlangan. Uning sitoplazmasida alliin nomli birikma bolib, u o‘pka saratoni rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Ushbu modda saraton hujayralarini o‘ldiradi va nafas olish tizimidagi infektion jarayonlar ehtimolini kamaytiradi. 100 g. uchun kaloriya miqdori 149 kkal, oqsillar 6,5, yog‘lar 0,5gr, uglevodlar 29,9 gr ga teng.

Sarimsoqpiyoz oziq-ovqatga, tibbiyotda, veterinariyada, sabzavotlarni konservalashda ishlataladi. Sarimsoq turli tuproq sharoitlariga moslashuvchan o‘simlik bo‘lganligi uchun ularni maktab, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari yer maydonlariga ekib parvarish qilish mumkin. Shu tariqa maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari oshxonalarida bolalar ovqatlari tarkibiga qo‘silsa maqsadga muvofiqdir. Umumta‘lim makablari o‘quvchilarini qishloq xo‘jaligi kasblariga o‘rgatish uchun ham maktab yer maydonchalarida sarimsoq va boshqa sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, texnologiya darslarida qishloq xo‘jaligiga doir mavzularda amaliyot darslarini tashkil etishda foydalanish mumkin.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston respublikasi prezidentining “O‘zbekiston respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘sishicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi FARMONI 2018-yil 29-martdag‘i РФ-5388-son

2. V.I.Zuyev, O.Qodirxo‘jayev va boshqalar. Sabzavotchilik va polizchilik.-T.: “Iqtisod – moliya”, 2017.
3. T.E. Ostanakulov, V.I.Zuyev va boshqalar. Sabzavotchilik. Toshkent 2010 y.